

BUGUNGI KUN YOSHLARINING TIL VA ADABIYOTNI

O'RGANISHDAGI INTELLEKTUAL SALOHİYATI

Islomov Bardoshbek JDPI Chet tillari fakulteti ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich 410-guruh talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqola tilning ahamiyati yoshlarning, til o'rganishga, adabiyotga qay darajada e'tiborli ekanligi haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Bilim va malaka, chet tili, adabiyot, dars metodi, intellekt, adabiy nutq.

Bugungi kunda yuksak bilim va malakaga ega bo'lgan zamonaviy yoshlarni chet tillarini bilmagan holda tasavvur etish qiyin. Negaki, bugungi davr talabi yoshlarni o'z mutaxassisligidan tashqari qo'shimcha ravishda til bilishga ham undaydi. Dono xalqimiz «til –aloqa kaliti» deya bejizga aytishmaydi, zero, bugungi kunda chet tillarini mukammal bilgan shaxs har qanday jabhada o'z ish faoliyatini osonlik bilan amalga oshirishi mumkin, u davlat vakilimi, shifokormi, tadbirkormi, qaysi kasb egasi bo'lishiga qaramay o'z ish faoliyatini kengaytirishda, rivojlantirishda, fikr almashish, qo'shimcha bilim va malakaga ega bo'lish uchun muhim bir vosita hisoblanadi. Shu borada yurtimizda chet tillarini o'qitish va o'rganish uchun yetarli ravishda shart-sharoitlar mavjud jumladan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12-dekabr 2012-yildagi «Chet tillarini o'qitishni yanada takomillashtirish» to'g'risidagi qarori asosida yurtimizda tillarni o'rganish va ularni isloh qilish uchun yo'l ochildi. Yoshlarga tillarni o'rgatish uchun turli xildagi interfaol, an'anaviy va noan'anaviy dars metodlari ishlab chiqildi ayniqsa, chet tili metodisti, professor J.Jalolovning «Chet til o'qitish metodikasi» kitobida tillarni

o'qitish borasidagi zarur bir qator metodlar ishlab chiqilgan bo'lib, o'qituvchilar o'quvchilarni malakali til mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun ana shu kabi metodlardan foydalanadilar. Albatta bu o'z samarasini berib kelmoqda yoshlarda til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni oshirmoqda. Shuningdek, hozirgi paytda bir nechta tillarda o'z ona tili kabi so'zlashayotgan yoshlar ham kam emas va ularning safi kengayayotgani sir emas, ammo tilshunoslikda o'rganilishi kerak bo'lgan

yo‘nalishlar, adabiyotimizning ochilmagan tilsimlari borligi ham ma‘lum. Nima uchun yoshlarimiz shu kabi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib bormayapti? Milliy adabiyotimiz, mumtoz she‘riyatimizda va shu kabi adabiy asarlarimiz orasida rus tili va ingliz tilidan boshqa tillarga ham tarjima qilinishi lozim bo‘lgan asarlarimiz borligi sir emas. Bundan tashqari biror-bir tilni o‘rganishni uning adabiyotisiz tasavvur etish qiyin. Yoshlarimizda yoki biror-bir til o‘rganuvchining nutqidagi kamchiliklar esa o‘rganuvchining adabiyot kam mutolaa qilishidan dalolat beradi. Adabiyot bilan oshno bo‘lgan inson nafaqat nutqidagi kamchiliklardan xoli bolishi, balki fikrlash qobiliyati kengayishi, shuningdek, ma‘naviy barkamol bo‘lishi isbotlangan. Bu borada Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan o‘tkaziladigan «Yosh kitobxon» ko‘rik-tanlovi amaliy misol bo‘la oladi. Yurtning qaysi chekkasida yashamasin va qay shevada gaplashmasin agar u adabiyot bilan oshno bo‘lsa adabiy shevada ham bemalol gaplasha oladi, o‘z fikrini ifodalay oladi. Zero, adabiyot atalmish xazinamizga yana va yana ajoyib yozuvchilar, Hamid Olimjon-u, Zulfiyalar, G‘ofur G‘ulom, O‘tkir Hoshimovlar kerak. Bugungi kun yoshlari ham shular kabi o‘tkir qalam ishlari, ajoyib asarlarning mualliflari bo‘lishiga ishonamiz. Shuni aytish lozimki, inson qaysi tilni o‘rganishidan va qaysi tilda so‘zlashishidan qat’i nazar avvalambor o‘z ona tilini o‘zgalarga na‘muna bo‘la oladigan darajada mukammal bilishi va mehr qo‘yishi lozim deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. J.Jalolov. «Chet tillarini o‘qitish metodikasi». 2012
2. Djabbarov, S. (2020). article Ijtimoiy-psixologik kompetitlilik tushunchasi xususida. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(52). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4897
3. Djabbarov, S. (2020). Бўлажак чет тил муаллимининг касбий тайёргарлиги ва уни шакллантириш йўллари. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(52). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4899